

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTINING
QARORI
29.12.2017 y.
N PQ-3454**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
2018 YILGI ASOSIY MAKROIQTISODIY
KO'RSATKICHLARI PROGNOZI VA DAVLAT
BYUDJETI PARAMETRLARI TO'G'RISIDA**

[Ko'chirma]

- 7-ilova. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkalari
- 8-ilova. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari
- 9-1-ilova. Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun
(savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan
tashqari) yagona soliq to'lovi stavkalari
- 9-2-ilova. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari,
shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar
uchun yagona soliq to'loving stavkalari
- 9-3-ilova. Ayrim toifadagi korxonalar
uchun yagona soliq to'lovi stavkasi
- 10-ilova. Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi
tadbirkorlardan olinadigan, tadbirkorlik faoliyatining
ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq stavkalari
- 11-ilova. Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan
qat'iy belgilangan soliq stavkalari
- 12-1-ilova. O'zbekiston Respublikasida
ishlab chiqariladigan, aksiz solig'i solinadigan
tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari
- 12-2-ilova. O'zbekiston Respublikasi hududiga chetdan keltiriladigan
aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga aksiz solig'i stavkalari
- 13-ilova. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari
- 14-ilova. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari
- 15-1-ilova. Imzolanadigan bonus stavkalari
- 15-2-ilova. Tijoratbop topilma bonusi stavkasi
- 16-ilova. Ayrim turdagи mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stavkasi
- 17-ilova. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi
- 18-ilova. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari
- 19-ilova. Yuridik va jismoniy shaxslardan
olinadigan yer solig'i stavkalari
- 20-ilova. Yagona yer solig'i stavkasi
- 21-ilova. Mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan stavkalari
- 22-ilova. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar va ajratmalar stavkalari

- 23-ilova. Yagona ijtimoiy to'lov stavkalari
- 24-ilova. Majburiy ajratmalarni Davlat maqsadli jamg'armalariga taqsimlash normativlari
- 25-ilova. Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalari
- 26-ilova. Mobil aloqa xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lanadigan to'lovni taqsimlash me'yorlari
- 27-ilova. Undiruvni soliq to'lovchilar mol-mulkiga qaratish uchun soliq bo'yicha qarzlarning eng kam miqdorlari
- 32-ilova. Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan olinadigan 2018 yilgi to'lov miqdorlari
- 33-ilova. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi Davlat byudjeti, maqsadli davlat jamg'armalarining byudjetlari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida" 2017 yil 13 dekabrdagi 1341-III-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi Davlat byudjeti, maqsadli davlat jamg'armalarining byudjetlari hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari to'g'risida" 2017 yil 20 dekabrdagi PS-241-III-sonli qarorini bajarish yuzasidan:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi 1-ilovaga* muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi Davlat byudjeti asosiy parametrlari 2-ilovaga* muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi (keyingi o'rnlarda - Pensiya jamg'armasi)ning, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi (keyingi o'rnlarda - Respublika yo'l jamg'armasi)ning, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rnlarda - Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi)ning, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining 2018 yilgi asosiy parametrlari 3 - 6-ilovalarga* muvofiq tasdiqlansin.

2. 2018 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti profitsiti prognozi yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 0,02 foiz miqdorida belgilansin.

3. 2018 yil uchun:

obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bilan birlashtirilishini hisobga olgan holda yuridik shaxslardan olinadigan foya solig'i stavkalari 7-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari 8-ilovaga muvofiq;
yagona soliq to'lovi stavkalari 9-1, 9-2 va 9-3-ilovalarga muvofiq;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari 10-ilovaga muvofiq;

yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari 11-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromad solig'i stavkalari 10 foiz miqdorida;

qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari 20 foiz miqdorida;

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga chetdan keltiriladigan aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarga aksiz solig'i stavkalari 12-1 va 12-2- ilovalarda keltirilgan ro'yxatga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 13-ilovaga muvofiq;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 14-ilovaga muvofiq;

imzolanadigan bonus va tijoratbop topilma bonusi stavkalari 15-1 va 15-2- ilovalarga muvofiq;

ayrim turdag'i mahsulotlar bo'yicha qo'shimcha foyda solig'i stavkalari 16-ilovaga muvofiq;

yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari 17 va 18- ilovalarga muvofiq;

yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari 19-ilovaga muvofiq;

yagona yer solig'i stavkalari 20-ilovaga muvofiq;

mahalliy soliqlar va yig'imlar stavkalari 21-ilovaga muvofiq;

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar stavkalari 22-ilovaga muvofiq;

mablag'larni Pensiya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o'rtasida taqsimlagan holda yagona ijtimoiy to'lov stavkalari 23-ilovada keltirilgan normativlarga muvofiq;

fuqarolarning Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkasi 8 foiz miqdorida tasdiqlansin.

4. Pensiya jamg'armasiga, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy ajratmalar yagona to'lovga - uning stavkasini 3,2 foiz miqdorida belgilagan holda maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'ovi etib birlashtirilsin.

Majburiy ajratmalarni Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi o'rtasida taqsimlash 24-ilovada keltirilgan normativlar bo'yicha amalga oshiriladi.

5. Belgilansinki, 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab tayyorlov tashkilotlari tovar aylanishidan yagona soliq to'lovini o'rnatilgan stavka bo'yicha to'laydilar.

6. 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan majburiy badallar miqdori oshirilgan holda 2 foiz miqdorida belgilansin hamda jismoniy shaxslarning byudjetga to'lanadigan daromad solig'i miqdori fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan mablag'lari miqdorida kamaytirilsin.

7. 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab, jami maydoni 1 gektardan ko'proq yer uchastkasiga ega bo'lgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun yagona soliq to'loving eng kam miqdorini hisobga olib, yagona soliq to'lovini hisoblab chiqish va to'lash tartibini bekor qilish bilan bir vaqtda ular uchun jami maydonga yer solig'ini to'lash joriy etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi bir oy muddatda yagona soliq to'lovchilarining yer solig'ini hisoblab chiqish va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

8. Nazarda tutilsinki, yuk tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun, soliqqa tortish tizimidan qat'i nazar, bitta transport vositasiga hisoblaganda ular tomonidan to'lanayotgan soliqlar va maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy ajratmalarining jami miqdori yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu faoliyat turi bo'yicha to'layotgan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Qo'shimcha ravishda hisoblab chiqarilgan summa yuridik shaxslarning foyda solig'i yoki yagona soliq to'lovi to'lanishi hisobiga qo'shilishi belgilab qo'yilsin.

9. Yagona soliq to'lovlaridan keladigan tushumlar O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda taqsimlanishi belgilab qo'yilsin.

Shu narsa ko'zda tutilsinki, mikrofirmalar va kichik korxonalar bo'yicha yagona soliq to'lovidan keladigan tushumlarni O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi o'rtasida taqsimlash yagona soliq to'lovi summasidan ajratmalarining 8 foizini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda chiqarib tashlagan holda amalga oshiriladi. Bunda, 8 foiz miqdorida tushayotgan yagona soliq to'lovi summasining bir qismi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi jamg'armasiga va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashiga yo'naltiriladi.

Belgilansinki, mablag'larni taqsimlash 2018 yilning 1 fevralidan keyin tushgan yagona soliq to'lovi summasidan amalga oshiriladi.

10. Notijorat tashkilotlariga 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab yagona soliq to'lovini mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan tartibda, xodimlar sonidan qat'i nazar ularning tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlari qismidan to'lash huquqi berilsin.

11. Belgilab qo'yilsinki, 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ko'chmas mulkning qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadigan kadastr qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar ko'chmas mulkining kadastr qiymatini belgilash tartibini tasdiqlasini.

Mol-mulkni kadastr qiymatidan kelib chiqib soliqqa tortishga o'tilgandan so'ng, soliq yukining keskin o'sishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jismoniy shaxslar mulkiga kadastr qiymati asosida belgilangan soliq miqdori 2017 yilda hisoblangan soliq summasidan 1,2 baravardan ko'proqqa oshirilishi mumkin emasligi nazarda tutilsin.

12. Mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish shartnomada belgilangan ijara to'lovi summasidan kelib chiqqan holda belgilansin, lekin:

yuridik shaxslar uchun - davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalaridan;

mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun - 25-ilovaga muvofiq belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan summadan kam bo'limgan miqdorda amalga oshiriladi.

13. 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab mobil aloqa xizmati ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun

to'lov haqi, mablag'larni 26-ilovaga muvofiq taqsimlagan holda, oyiga 4000 so'm miqdorida belgilansin.

14. Qarzni undirishni soliq to'lovchilar mol-mulkiga qaratish uchun soliq bo'yicha qarzlarning eng kam miqdorlari 27-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

22. Moliya vazirligi 2018 yilda O'zbekiston Respublikasining davlat g'aznachilik obligatsiyalarini muomalaga chiqarsin hamda tushgan mablag'larni mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan belgilanadigan yirik investitsiya loyihamalari amalga oshirishga yo'naltirsin, Davlat byudjetining parametrlarida foizlarni to'lash uchun zarur mablag'larni nazarda tutsin.

23. 2023 yilning 1 yanvariga qadar:

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 60-63-moddalarida ko'rsatilgan manbalardan qo'shimcha daromad oluvchi byudjet tashkilotlari undirib olinadigan barcha turdagi soliqlardan, Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy ajratmalar to'lashdan;

O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o'tgan chet el oliy ta'lim muassasalari ularning O'zbekiston Respublikasida amalga oshirayotgan ta'lim faoliyati doirasida barcha turdagi soliqlarni va maqsadli davlat jamg'armalariga majburiy ajratmalarni, shuningdek, chet elliq xodimlarning mehnat haqi fondi qismida yagona ijtimoiy to'lov va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilinsin.

24. Quyidagilar byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish-ning asosiy yo'naliishlari etib belgilansin:

mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, ular xarajatlarining tasdiqlangan parametrlarini o'z vaqtida va maqsadli moliyalashtirish, ijtimoiy soha hamda infratuzilma obyektlarini yanada rivojlantirish va tegishli darajada saqlashni ta'minlash yuzasidan mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda moliya va soliq organlarining javobgarligini kuchaytirish;

tegishli byudjetlarning daromadlarini shakllantirish qismida mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjetga oid vakolatlarini aniq-puxta chegaralash;

soliqlar va yig'imlarning ba'zi turlari bo'yicha tushumlarni mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida qoldirish hisobiga ularning o'z daromad bazasini kengaytirishdagi faoliyatini kuchaytirish;

yirik soliq to'lovchilardan tushadigan ba'zi soliq turlari bo'yicha tushumlarni respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari o'rtasida taqsimlash;

tumanlar va shaharlarning bir tekis rivojlanishini ta'minlash uchun joylardagi davlat hokimiyati organlariga mahalliy soliqlarning ayrim turlari bo'yicha stavkalarni pasaytirish va ko'paytirish vakolatlarini berish;

ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha xarajatlarni va ko'zda tutilmagan sarf-xarajatlarni moliyalashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlari mustaqilligini oshirish.

25. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy byudjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 7 iyundagi PF-5075-sonli Farmoniga muvofiq mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromad olishdagi vakolatlarini oshirish va sarf-xarajatlardagi majburiyatlarini chegaralash bo'yicha o'tkazilgan eksperimentda ijobiy natijalarga erishilgani hamda uning Toshkent shahri uchun amal qilishini uzaytirish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2018 yilning 1 yanvaridan boshlab mazkur tartib Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlarning mahalliy byudjetlariga nisbatan joriy etilsin, bunda quyidagilar nazarda tutilsin:

a) quyidagi daromadlar:

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, jismoniy shaxslarning mulk solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i, ayrim turdag'i tovarlarning chakana savdosi huquqi uchun hamda ayrim turdag'i xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar, bozorlardan tushadigan daromadlar bo'yicha tushumlar to'la hajmda tumanlar va shaharlarning byudjetlariga;

yagona yer solig'idan, yuridik shaxslarning yer solig'idan, yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqdan, yagona soliq to'lovi ajratmalaridan, benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moli solig'idan, abonent raqamidan foydalanganlik uchun tegishli qismi tushumlaridan ularni Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, tuman va shaharlarning byudjetlari o'rtasida taqsimlagan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlarning mahalliy byudjetlariga;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va davlat bojining tegishli qismi (litsenziyalar berish uchun davlat boji va patent bojlari bundan mustasno) to'liq hajmda, shuningdek, davlat aktivlarini sotishdan va davlat mulkini ijaraga berishdan olinadigan tushumlarning 25 foizi - Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga hamda viloyatlarning viloyat byudjetlariga o'tkaziladi;

b) jismoniy shaxslarning daromad solig'idan, yuridik shaxslarning foyda solig'idan (to'lov manbaida norezidentlardan undiriladigan soliqlar bundan mustasno), qo'shilgan qiymat solig'i, tegishli tovarlar bo'yicha aksiz solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, jarimalar va yig'ilmarning tegishli qismi bo'yicha olinadigan tushumlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va viloyatlarning mahalliy byudjetlari o'rtasida taqsimlash, shuningdek, tegishli qismda ajratilayotgan soliqlardan olinayotgan tushumlarning belgilangan prognozlari oshirib bajarilishi summalarini tegishli byudjetlarning tasarrufida qoldirish;

v) quyidagilar:

ish haqi bo'yicha xarajatlarni hamda tibbiyot muassasalarining yagona ijtimoiy haqini to'lashga hamda tuman va shaharlarning byudjetlaridan moliyalashtiriladigan ta'limga muassasalarining aynan shunday sarf-xarajatlarini to'lashga Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va viloyatlarning mahalliy byudjetlariga O'zbekiston Respublikasining Respublika byudjetidan;

tumanlar va shaharlarning byudjetlaridan moliyalashtiriladigan ish haqi va yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha sarf-xarajatlarning qolgan qismini to'lashga tuman va shaharlarning byudjetlariga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan maqsadli ijtimoiy transfertlar ajratish.

Belgilansinki:

ta'limga muassasalarini va sog'liqni saqlash muassasalarining ish haqini hamda yagona ijtimoiy to'lovinini moliyalashtirishga ajratiladigan maqsadli ijtimoiy transfertlar hajmi tuman va shaharlar byudjetlarining daromad bazasi ko'payishidan qat'iy nazar kamaytirilmasligi lozim;

ayrim tumanlar va shaharlar byudjetlarining mutanosibligi viloyat byudjetlariga ajratilayotgan umumbelgilangan soliqlarning byudjet qonunchiligiga muvofiq shakllantirilgan sarf-xarajatlarini inobatga olganda, mana shu soliqlar hisobiga ta'minlanmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari, tuman hamda shaharlar byudjetlarining daromad va xarajatlari hajmlarini

tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qilishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga xarajatlarning yetishmayotgan summasini daromadlarni Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti, tuman va shaharlarning byudjetlari o'rtasida qaytadan taqsimlash hisobiga qoplash huquqi berilsin.

26. Quyidagilar:

tegishli ma'muriy-hududiy birlik bo'yicha byudjetning jami daromadlar prognози ортиб борувчи якун билан бajarilgan taqdirda daromadlar prognozining oshirib bajarilgan summasini quyi byudjetlardan yuqori turuvchi byudjetlarga olib qo'yish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari parametrlarida nazarda tutilgan xarajatlarni asossiz qisqartirish taqiplansin.

27. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar, tuman va shaharlarning hokimlari o'zlarining byudjetga oid vakolatlariga kiruvchi daromadlarning to'liqligini va xarajatlar o'z vaqtida moliyalashtirishini ta'minlash yuzasidan shaxsan javobgar bo'lislari to'g'risida ogohlantirilsin.

28. 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarning hokimliklariga xalq deputatlari tegishli Kengashlari bilan kelishilgan holda:

moliya yili mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalardagi qo'shimcha, ko'zda tutilmagan xarajatlarni o'z vaqtida va uzuksiz moliyalashtirishni ta'minlash uchun tegishli byudjetlar sarf-xarajatlarining umumiylaj hajmidan 1 foizi miqdorida tuman va shaharlar hokimliklarining zaxira jamg'armalarini shakllantirish;

mintaqaning va faoliyatni amalga oshirish joyining xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq va jismoniy shaxslarning yer solig'i bo'yicha belgilangan stavkalarga nisbatan 0,7 dan 1,3 gacha pasaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlar o'rnatish huquqi berilsin.

Belgilab qo'yilsinki, to'rtinchı guruhi bo'yicha xarajatlar smetasini ijro etish jarayonida hududiy moliya organlari tomonidan optimallashtirilgan byudjet mablag'lari tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti zaxira jamg'armasini, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti, tuman va shaharlar byudjetlarining zaxira jamg'armalarini ko'paytirishga yo'naltiriladi hamda o'rnatilgan tartibda foydalilaniladi.

29. Quyi byudjetlar daromadlarining tasdiqlangan parametrlari bajarilmasligi natijasida yuzaga kelgan daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi kassa uzelishi moliya yili davomida - naqd pul kassa aylanmasini va yuqori turuvchi byudjet tomonidan taqdim etiladigan foizsiz byudjet ssudalarini jalb etish yo'li bilan, bir moliya yilidan ortiqroq muddatda esa - yuqori turuvchi byudjet tomonidan 2 yil muddatga 2 foizli byudjet ssudasini berish orqali qoplanishi belgilab qo'yilsin.

30. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda 2018 yilning 1 iyuliga qadar muddatda taqdim etilgan imtiyozlar bekor qilingani va mazkur soliq to'lovchilar doirasi kengayishini hisobga olgan holda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini pasaytirish bo'yicha takliflar kiritsin.

31. 2018 yilning 1 apreliдан boshlab:

mahalliylashtirish dasturlariga kiritilgan korxonalarga, shu jumladan, amalga oshirilayotgan loyihalar bo'yicha berilgan;

yuridik shaxslarning foyda solig'i, mol-mulk solig'i va yagona soliq to'lovi bo'yicha eksport ulushiga bog'liq holda eksportyor-korxonalarga taqdim etilgan imtiyozlar bekor qilinsin.

32. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Hisob palatasi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, Davlat soliq qo'mitasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda 2018 yilning 1 iyuliga qadar ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda, jumladan:

mablag'lar kelib tushishi va sarflanishi ustidan monitoring hamda nazorat qilishning ushbu jarayonni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradigan samarali va zamonaviy mexanizmlarini tatbiq etish;

xo'jalik yurituvchi subyektlardagi davlatga tegishli aksiyalar (ulushlar)dan respublika byudjetiga dividendlar to'lash mexanizmlarini takomillashtirish yo'li bilan byudjet jarayonining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining Soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish konsepsiysi loyihasini kirtsin.

33. 2018 yil uchun:

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlar va xarajatlar hajmlari, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan maqsadli ijtimoiy transfertlar miqdorlari 28-ilovaga* muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar normativlari 29-ilovaga* muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining naqd pul kassa aylanmasining yo'l qo'yildigan eng kam miqdorlari 30-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

34. O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi:

2018 yilning 15 apreliga qadar davlat ulushiga ega bo'lgan barcha xo'jalik jamiyatları bo'yicha boshlangan yilning biznes-rejalari Moliya vazirligi bilan kelishib olinishini ta'minasin;

Moliya vazirligi va manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2018 yilning 1 mayiga qadar xo'jalik jamiyatlarining ustav jamg'armalaridagi davlat aktivlarini yoppasiga xatlovdan o'tkazsin.

Moliya vazirligi Hisob palatasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda 2018 yilning 1 dekabriga qadar ustav jamg'armalarida 50 foiz va undan ko'proq davlat ulushlari mavjud korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyati tahlil etilishini ta'minasin hamda ushbu jamiyatlarda davlat ishtirokinı optimallashtirish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

35. 2018 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjeti zaxira jamg'armalari miqdorlari 31-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

36. Sarf-xarajatlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi nazarda tutiladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlarini, shuningdek, tarmoq yoki mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish mazkur tarmoq yoki mintaqqa bo'yicha joriy yil uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

37. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va xalqaro donorlar mablag'larini, homiylarni jalg etish hisobiga neyrosensorli qulqoq og'irligi va karlik dardiga chalingan bolalarda koxlear implantatsiyasini o'tkazish tadbirlari moliyalashtirilishini ta'minlasin.

38. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun 2018 yilda ota-onalar to'lovi miqdorlari 32-ilovaga muvofiq belgilansin.

39. Belgilab qo'yilsinki, 2017 yilning sentabr-dekabr oylari davrida katod misi va tabiiy gaz bo'yicha qo'shimcha foyda solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliqqa tortiladigan baza miqdori (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'idan tashqari) "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 dekabrdagi PF-5284-sonli Farmoni bilan belgilangan normalarga muvofiq hisoblanadi.

40. Moliya vazirligining 2017 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining asosiy parametrlarini va maqsadli davlat jamg'armalarini quyidagi hajmlarda aniqlashtirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari 48 476 milliard so'm, xarajatlari - 49 090 milliard so'm miqdorida;

Pensiya jamg'armasining daromadlari 17 350 milliard so'm va xarajatlari - 16 633 milliard so'm miqdorida;

Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasining daromadlari 2 051,6 milliard so'm va xarajatlari - 2 051,6 milliard so'm miqdorida.

41. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda 2018 yilning yanvar oyida, o'tkazilgan operatsiyalarni 2017 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotda aks ettirgan holda 2017 yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, yakuniy operatsiyalar o'tkazsin.

42. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" 2009 yil 22 dekabrdagi PQ-1245-sunli qarori 24-bandining amal qilishi 2019 yilning 1 yanvariga qadar uzaytirilsin.

43. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 33-ilovaga muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

44. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy islohotlarni amalga oshirish komissiyasi (A.N. Aripov) Bosh prokuratura bilan birgalikda uch oy muddatda:

Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalar faoliyatini tanqidiy o'rganishni tashkil qilsin, bunda shtat xodimlari sonini yanada optimallashtirish, byudjet mablag'larining samarali shakllantirilishi, ajratilishi va sarflanishi uchun moliya organlarining javobgarligi oshirilishi nazarda tutilsin;

mustaqil davlat inspeksiyalari faoliyatini tanqidiy o'rganishni tashkillashtirsin, bunda ular biriktirilgan sohada yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida tegishli vazirliklarga bo'y sunishi ko'zda tutilsin;

xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini tanqidiy o'rganib, korporativ boshqaruva samaradorligini oshirish hamda ularning mulki va mablag'larini tasarruf qilish asosliligi mezonlarini o'rnatish yuzasidan takliflar kirtsin.

Shtatdagi xodimlar sonini optimallashtirish hisobiga bo'shayotgan mablag'lar mazkur organlar xodimlarining moddiy ta'minot darajasini oshirishga yo'naltirilishi nazarda tutilsin.

45. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

46. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktori Sh.M. Sodiqov, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari - moliya vaziri J.A. Qo'chqorov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinnbosari S.R. Xolmurodov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh. Mirziyoyev

**) 1-6, 28-31-ilovalar berilmaydi.*